ZAMONAVIY O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA PARADOKSAL HOLATLAR VA AYOL TAQDIRI TALQINI (N. ESHONQULNING “QULTOY” HAMDA J. JOVLIYEVNING “AYOL” HIKOYALARI MISOLIDA)

Sulaymanova Nafisaxon Yashin qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu tezisda zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin vakillari Nazar Eshonqul hamda Javlon Jovliyev hikoyalaridagi ayol mavzusi, syujet va qahramon talqinidagi paradoksal hodisalar, uning nazariy asoslari hamda badiiy matnda namoyon bo‘lish shakllari tahlil qilinadi. Paradoksning ayol obrazlar tizimida voqelanishi o‘rganilib, mustaqillik davri hikoyalari, xususan “Qultoy” hamda “Ayol” misolida paradoksal tafakkurning o‘rni va estetik ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so’zlar: *paradoks, qahramon, ijodiy individuallik, ziddiyat, kompozitsiya.*

Annotation. *This thesis analyzes the theme of women in the stories of prominent representatives of modern Uzbek literature Nazar Eshonkul and Javlon Jovliyev, paradoxical phenomena in the interpretation of the plot and hero, its theoretical foundations and forms of manifestation in the literary text. The occurrence of paradox in the system of female images is studied, and the role and aesthetic significance of paradoxical thinking are revealed in the stories of the independence period, in particular, in the examples of "Kultoy" and "A woman".*

Keywords: *paradox, hero, creative individuality, contradiction, composition.*

Аннотация. *В диссертации анализируется женская тема в произведениях выдающихся представителей современной узбекской литературы Назара Эшонкула и Джавлона Жовлиева, парадоксальные явления в трактовке сюжета и героя, их теоретические основы и формы проявления в художественном тексте. Изучается наличие парадокса в системе женских образов, раскрываются роль и эстетическое значение парадоксального мышления в произведениях периода независимости, в частности, на примере «Култой» и «Женщина».*

Ключевые слова: *парадокс, герой, творческая индивидуальность, противоречие, композиция.*

Mustaqillik davri hikoyalaridagi paradoksal holatlarning o‘rganilishida jamiyatning ichki o‘zgarishlari, fikrlashdagi yangilanish, eskidan yangiga o‘tish jarayoni aks etadi. Shu jarayonda paradoks syujet dramatizmini kuchaytiruvchi vosita, qahramon ruhiy kechinmalarini ochuvchi usul, ijtimoiy o‘zgarishlarni aks ettiruvchi badiiy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Hikoyalardagi qahramon xarakterini ochish paradoksal vaziyatlar - qahramonning ichki kurashi, ruhiy o‘zgarishlari, qarorlaridagi ikkiyoqlama holatlar orqali yanada yaqqol ko‘rinadi.

Mustaqillik davri murakkab ijtimoiy o‘zgarishlar davri bo‘lgani uchun paradokslar hayotning o‘zidan kelib chiqadi. Buni aks ettirish uchun dastavval Nazar Eshonqulning “Qultoy” hikoyasiga to‘xtalsak. Shaxsiy butunlik, shaxsiyat va adabiy vijdon masalasi yozuvchi ijodiy pozitsiyasida birlamchi ahamiyat kasb etadi. Uning qahramonlari ozodlik uchun ochiq tashviqot yurgazmaydi, kurashga chorlamaydi, aksincha, fikriy uyg‘oqlikka chaqiradi. Ruhiy hurriyat, fikriy mustaqillik yozuvchining ijodiy shiori deyish mumkin. Muallif asarlarida jamiyat hayotida o‘z o‘rnini topa olmagan, to‘g‘rirog‘i topishdan mahrum qilingan Inson qiyofasi aks etadi. Jamiyat tomonidan

tahqirlangan, o‘zligini unutishga mahkum etilgan, qadriyatlari poymol etilgan, erki kamsitilgan Shaxsning fojiasi ko‘rsatilgan.

Nazar Eshonqul hikoyalarini kuzatar ekanmiz, ba’zi holatlarda muallif “egizak hikoyalar” yaratganini ko‘rishimiz mumkin. Bunda hikoyalar ham kompozitsiya, ham g‘oya, ham obrazlar nuqtayi nazaridan bir-biriga o‘xshaydi, qolaversa, biri ikkinchisini to‘ldiradi. Muallif aytmoqchi bo‘lgan g‘oyasini rivojlantirish yoki tugallash uchun ham shu usulni amalga oshirganday tuyuladi. Masalan, “Qultoy” va “Bepoyon osmon” hikoyalarining epilogi o‘xshash. Ikkisida ham butun umr xo‘rlangan, qadr topmagan, oyoqosti bo‘lgan obraz bor va hikoya syujeti shu obraz atrofida shakllantiriladi. Qolaversa, hikoyalardagi qahramonlarning ismlari ham xalq dostonlaridagi nomlarga uyqash qilib tanlangan.

“Qultoy” hikoyasining sarlavhasi mohiyatini tushunish uchun epigraf sifatida “Alpomish” dan parcha keltirilganiga e’tibor berish kifoya. Hikoyada mayib oyoqlar bilan tug‘ilgani va ayni shu nuqsoni uchun sog‘lom odamlar dunyosida bir umr boshi egik holda yashashga mahkum, mushtipar, haqorat va xo‘rlikdan jussasi kichrayib borayotgan ayol – Arzixol obrazi bor. Hikoya syujeti davomida u boqib, katta qilgan Uljon ayolning ko‘kragidan “o‘ziga juda tanish” bir hidni tuyadi. Lekin “bu hid dimog‘ida qachon va qanday o‘rnashib” qolganini fahmlay olmaydi. Kaltaklanayotganini ham unutib tamshanib ketadi… Xullas, shu hid uni ta’qib eta boshlaydi. Negadir bundan u g‘azablanadi. Bahona topib Arzixolning yelkasiga gavron tushiradi. Ayol esa g‘iq etmasdan chidaydi. Chunki hammasiga: kaltak, tahqir, haqoratga allaqachon ko‘nikkan. Xuddi shu yerda paradoksal holat shundaki, Arzixol Uljonga xola emas, aslida ona. Pochchasi Rajab cho‘ponga esa asrandi o‘g‘il. O‘zbek mentalitetida ota-ona farzand tomonidan qattiq e’zozlanadi. Lekin bu yerda ziddiyat shundaki, Uljon yoshi ulg‘aygan sayin tuqqan onasidan jirkanadi, nafratlanadi, hatto uning bu dunyoda borligi ham g‘ashini keltiradi. Hatto qaynilari bilan bo‘lgan janjalda onasini urib, uning qo‘lini sindiradi.

“Maymoq” ning naq qishning chillasida joni uzilganida ham Uljon noroziligini yashirmaydi. Hikoya yakunida bobo sirni ochadi. Ammo bu ayol Uljonga umuman begona bo‘lib chiqqanida ham uning ayol zotiga bo‘lgan nafratini, hayvonsifat fe’lini o‘zgartirib bo‘lmas edi. “Qultoy” hikoyasida bir qarashda zid, mantiqan to‘g‘ri kelmaydigandek ko‘ringan, ammo ichki mantig‘i orqali badiiy haqiqatni kuchaytiruvchi hodisa aks etgan.

Javlon Jovliyevning “Ayol” hikoyasida esa qishloq hayotining og‘ir sharoiti, ro‘zg‘or mashaqqatlarini yelkasiga ortmoqlab olgan ayol bosh qahramon sifatida tasvirlanadi. Dangasa, boqibeg‘am er va bolalari uchun u tayyor xizmatkor, uning ham orzu-umidlari bo‘lishi mumkinligi ularning xayoliga ham kelmaydi, hatto tug‘ilgan kunini unutib qo‘yishadi.

Ushbu ikki hikoyani solishtirish asnosida paradoksal holatlar asosan quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lganligini kuzatish mumkin:

1. Badiiy obraz paradoksi – qahramon xarakteridagi ichki ziddiyatlar. “Qultoy” dagi Arzixolning jamiyat tahqirlariga nisbatan beparvoligi va “Ayol” dagi bosh qahramonning nohaqlik, qadrsizlikka nisbatan isyoni.

2. Til va uslub paradoksi – N. Eshonqul uslubida bir gapda uzun jumlalardan foydalanish, J. Jovliyevda bir maromdagi syujet chizig‘ida paradoksal holatlarni keltirish orqali ma’lum bir ijtimoiy fikrni yetkazish maqsadi aks etishi.

3. Kompozitsion paradoks – voqelikning asl mohiyati ikki hikoyada ham yakunga borib ochilishi.

4. G‘oya paradoksi – bitta badiiy mazmunning bir nechta qarama-qarshi xulosalarga olib kelishi. Ayol va Arzixol kabi qahramonning ichki kechinmalari, ijtimoiy o‘zgarishlarga munosabatini tushuntirish. Paradoks mazmunidagi yashirin ma’nolarni ochish.

Adabiyotshunoslikda paradoksal obraz ichki ziddiyatda yashovchi qahramonlarni tasvirlash orqali namoyon bo‘ladi: “Ayol” hikoyasidagi yollanma ishchi bo‘lgan ayol do‘kondan aroq olayotganda “olgan narsasini

qaytarib berish fikri vujudini bir soniya tirnab o‘tganini” kuzatamiz. Lekin uydagi holat: uning tug’ilgan kunini batamom eslamagan ishsiz er va 3 ta o‘g‘il uni o‘sha “achchiq suv” ni olishga majbur qiladi. “Qultoy” dagi Arzixol esa qancha urib-so‘kmasin, chavandozdan orrtirgan bolasini e’zozlayveradi, o‘tmishi sabab odamlarga qo‘shila olmaydi. Bu turdagi obrazlar adabiyotshunoslikda paradoksal holatning psixologik va falsafiy mazmunini boyitish uchun xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytganda, mustaqillik davri hikoyalarida paradoksal holatlar, asosan, yangi hayotga eski tafakkur qarshiligi, erkinlik va ichki qo‘rquv to‘qnashuvi, imkoniyat va moslasha olmaslik, ma’naviy bo‘shliq va moddiy yuksalish, jamiyatdagi tez o‘zgarishlarga nisbatan insonning ichki ziddiyatlari tarzida namoyon bo‘ladi. U obrazlar tizimi, til-uslub, kompozitsiya va g‘oya darajasida namoyon bo‘lib, badiiy matnning murakkab semantik tuzilishini yaratadi. Paradoksal hodisalar orqali muallif voqelikni noaniq, ko‘p qirrali va tafakkurni kengaytiruvchi tarzda tasvirlaydi. Shu bois paradoksal holatlar adabiyotshunoslikda eng dolzarb tadqiqot mavzularidan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. N. Eshonqul. Qultoy (hikoya) “Yoshlik” jurnali, 4-son, 2009.
2. K. Hamrayev. Hikoyada so‘nggi jumlaning poetik vazifasi. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 6-son, 2020.
3. Sh. Turdiyev. Badiiy tafakkur va zamonaviy poetik jarayon. T: Fan va texnologiya, 2018.
4. N. Eshonqul. Saylanma. I jild. T: “Akademnashr”, 2022.
5. N. Oripova. Nazar Eshonqulning “Qultoy” hikoyasi tahlili. 2024.